

20

Joriy yil yakunida O'zbekistonda
YIM 6,5-7% o'sishi kutilmoqda.

Shundan:

Sanoatda ishlab
chiqarish: 9,1%

Qurilish:
6,6%

Xizmat sohasi:
8,6%

Qishloq xo'jaligi:
2,8%

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

56 (16509)
2022-yil, 17-avgust
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Ijtimoiy himoya
3-bet

Nogiron yoshlarga
584,4 mln. so'm ajratildi

Mahallada yoshlar yetakchisi
4-bet

"Quyosh
qozoni"

Siz nima deysiz?
7-bet

Yoshlar qancha
kitob o'qiydi?



BESH TASHABBUS OLIMPIADASIGA

START!

OLIMPIADANING 2-MAVSUMIGA ISHTIROKCHILARNI RO'YXATGA OLISH BOSHLANDI.
YOSHLAR MUSOBAQALARGA JIDDIY TAYYORGARLIK KO'RMOQDA.

batafsil
5-betda

1147 NAFAR YOSH O'QUV KURSLARIDA BEPUL O'QITILDI

Bugun yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ko'lamini g'oyatda keng. Ularning puxta ta'lim olishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, barcha yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar qoraqalpog' yoshlarini ham ruhlantirib, yangi marralar sari chorlayapti. Ertamiz egalariga yanada ko'proq imkoniyatlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Nukus shahar tajribasi" yaratildi.



Mas'ul idora va tashkilotlardan iborat Ishchi guruh Nukus shahrining 4 ta sektoriga birlashtirildi. Yoshlar yetakchilari bilan birgalikda 64 ta mahallada uy-ma-uy xatlov ishlari amalga oshirilib, 14-30 yoshlarning balansi to'liq shakllantirildi. "Yoshlar balansi" asosida aniqlangan har o'n beshinchi ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan **4 820 nafar fuqaro 19 ta ko'mak turi bo'yicha "Yoshlar daftari" elektron platformasiga kiritildi.**


Raqamlar faqat qog'ozlarda qolayotgani yo'q, albatta. Nukus shahrida "Yoshlar daftari"ga kiritilganlarga amaliy yordam ko'rsatish ishlari boshlanib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish choralarini ko'rilmoqda. Masalan, shu kungacha Yoshlar ishlari agentligi mablag'lari hisobidan **311 nafar yoshlarning safarbarlik chaqiruvini rezervi xizmati badali, 176 nafarining haydovchilik o'quv kursi xarajatlari uchun 2,2 milliard so'm to'lab berildi.**

Shuningdek, "Nukus tajribasi" sifatida 1 147 nafar iqtidorli yoshlarni ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlarida 6 oygacha o'quv kurslarida bepul o'qitish uchun 16 ta nodavlat ta'lim tashkilotlariga Yoshlar ishlari agentligi

tomonidan **1,6 milliard so'm subsidiya mablag'lari ajratildi.** Qisqa muddatda yoshlar yetakchilari tavsiyasi asosida 154 nafari o'quvlarini boshladi va 77 nafari tegishli yo'nalishlar bo'yicha repetitorlarga birlashtirildi.

Toshkent shahar hokimligi tashabbusi bilan Nukus shahridagi 51 ta umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan kam ta'minlangan oilalarning 4 ming nafar o'quvchi farzandlarini maktab formasi va o'quv qurollari bilan ta'minlash, ularni **IT sohasiga keng jalb qilish uchun 1 000 ta zamonaviy kompyuter ajratish choralarini ko'rilmoqda.**

Faqat o'qitish bilan ish bitmaydi, ularni ayni sohalar bo'yicha ishga joylashtirish, bandlikni ta'minlash maqsadida ham bir qator ishlar bajarilmoqda. Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 35 nafar ishsiz yoshlarga subsidiya aso-



sida 42,5 million so'mlik mehnat qurollari berildi. Oliy ma'lumotga ega 123 nafar ishsiz yoshlarning 37 nafari Nukus shahrida mavjud vakant ish o'rinlariga joylashtirildi hamda 28 nafariga tegishli yo'llanmalar berildi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagidagi yoshlar uchun "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'ar-masi tomonidan 3 kunlik maxsus o'quv-seminar tashkil etildi.

Nafaqat moddiy ko'mak, balki yoshlarning salomatligiga ham e'tibor qaratilib, bemor yoshlar turli tibbiy muassasalarga joylashtirilmoqda. Masalan, xatlov natijasida aniqlangan 141 nafar bemor yoshlar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ko'z, endokrin, sil, teri-ta-



Po'lat MAXSETBAYEV,
Yoshlar ishlari agentligining
Qoraqalpog'iston Respublikasi
boshqarmasi boshlig'i

nosil, onkologik, kardiologik va boshqa kasalliklarni davolash uchun Toshkent va Nukus shaharlaridagi tibbiyot muassasalariga joylashtirildi, 3 nafariga nogironlik aravachasi berildi. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasiga 3,2 milliard so'm ajratilib, tuman (shahar)lardagi **ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 2 426 nafar farzandlari (7-14 yosh) sog'lomlashtirish uchun viloyatlarda joylashgan 23 ta oromgohga bepul yuborildi.**

Yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida mahalla yoshlari jamoalari ishtirokida futbol bo'yicha "Davlat xavfsizlik xizmati raisi kubogi"ning Qoraqalpog'iston bosqichi o'tkazildi. Minifutbol bo'yicha To'rtko'l tumanining "Ullibag" mahalla yoshlari jamoasi, futbol bo'yicha Qo'ng'iro't tumanining "Elobod" mahalla jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib, musobaqalarning yakuniy bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Sportni rivojlantirish vazirligi Qoraqalpog'istondagi 20 ta mahallada universal sport maydonchalari, 17 ta tuman (shahar)da bittadan sport maydonchasini qurib bermoqda. Shuningdek, umumiy qiymati 1,8 milliard so'mlik 21 turdagi zamonaviy sport inventarlari xarid qilinib, Nukus, Chimboy, Taxi-atosh, Kegeyli, Xo'jayli tumanlaridagi sport maktablariga yetkazildi. Sportchi yoshlar uchun 2 ming dona 1,3 milliard so'mlik sport formallari ajratildi.

IT SOHASIGA KENG JALB QILISH UCHUN 1 000 TA ZAMONAVIY KOMPYUTER AJRATILISH CHORALARI KO'RILMOQDA.

MO'YNOQ TUMANI AHOLISI UCHUN SOLIQ IMTIYOZLARI

177 IMKONIYAT



Prezidentimizning 2017-yil 28-fevraldagi "2017-2018-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani iqtisodiyotini rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani aholisi uchun soliq imtiyozlari belgilangan.

Unga ko'ra, Mo'ynoq tumani iqtisodiyotini rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash maqsadida **2027-yil 1-yanvargacha qadar:**

- Mo'ynoq tumanida ro'yxatdan o'tgan va faoliyat olib borayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliq to'lovidan ozod etiladi;

- "Mo'ynoq" KSZda sanoat yo'nalishida faoliyat olib borayotgan yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari barcha turdagi soliqlardan ozod etiladi;

- Mo'ynoq tumanida ro'yxatdan o'tib va ushbu tumanda faoliyat olib borayotgan yuridik shaxslarning ta'sischilari dividend sifatida olgan daromadlari uchun daromad solig'idan ozod etiladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Mazkur imtiyozdan foydalanish uchun jismoniy va yuridik shaxslar Mo'ynoq tumanida ro'yxatdan o'tgan va faoliyat olib borayotganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

Imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

NOGIRON YOSHLARGA 584,4 MLN. SO‘M AJRATILDI



“

Buxoro viloyatida nogironligi bo‘lgan yoshlar 3 ming 947 nafarni tashkil etadi. Hozirgi kunda ularning 56 nafari “Yoshlar daftari”da qolmoqda.



G'olibjon AHMEDOV,
Yoshlar ishlari agentligi
Buxoro viloyati boshqarmasining
ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan
ishlash bo'yicha mutaxassisi

Bunday yoshlarga mehnat qurollari, asbob-uskunalar olib berish, davolanishi, moddiy yordam va kontrakt pullarini to'lab berish uchun “Yoshlar daftari” jamg'armasi hisobidan 584,4 million so'm sarflandi. Jumladan, 287 nafariga 304,4 million so'mlik bir martalik moddiy yordam, 41 nafariga 255,1 million so'mlik davolanish bilan bog'liq xarajatlar, 6 nafariga 9,3 million so'm miqdorida ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarga turar joy ijarasi uchun subsidiyalar ajratilib, 42 nafar yosh nogironlik aravachalari bilan ta'minlandi.

Imkoniyati cheklangan yoshlarni nafaqat ijtimoiy himoya qilish, balki ularning shaxsiy rivojlanishi va ta'lim olishi borasida ham chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va qobiliyatiga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida o'qishlari uchun inklyuziv ta'lim markazi tizimi amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'lim markazining vazifasi bolalarning qobiliyati va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim berishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyati cheklangan bolalarning ijobiy



ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishi uchun oilada yashashi va o'z tengdoshlari bilan birga maktabda bilim olishi nazarda tutadi.

Shunday markazlardan biri Buxoroda ham faoliyat olib bormoqda. Inklyuziv ta'lim markazida Daun sindromi, DSP va mental rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar bilan mashg'ulotlar olib borilmoqda. Inklyuziv markazning asosiy vazifasi yoshlarga psixologik xizmat ko'rsatishga ko'maklashish va ular shaxsiy hayotda duch keladigan salbiy holatlarning oldini olish,

har tomonlama qo'llab-quvvatlash, motivatsiya berish hamda psixologik yordam ko'rsatishdan iborat.

Bugungi kunda 15 nafardan ortiq yoshlar inklyuziv markaz to'g'araklariga doimiy qatnashib, ahvoli ijobiy tomonga o'zgarimoqda. Ular turli bellashuv, ko'rik-tanlovlarda yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Masalan, Zomin tumanidagi “Zomin” bolalar oromgohida tashkil etilgan “Matonat” oromgohida inklyuziv ta'lim markazimizdan 3 nafar yosh qatnashdi. DXX bilan hamkorlikda o'tkazilgan shaxmat turnirida 200 nafar nogiron yosh ishtirok etdi. Musobaqada Olmosjon Qodirov faxrli 1-o'rinni egalladi. U imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan, o'z tengdoshlariga tom ma'noda o'rnak bo'la oladi. Yoshlar ishlari agentligining Buxoro viloyati boshqarmasi tomonidan Olmosjonga diplom hamda nogironlik aravachasi berildi.

MATBUOT KOTIBLARI MALAKA OSHIRMOQDA

Joriy yilning 15–20-avgust kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi “Yoshlar oromgohi”da Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari axborot va media bo'yicha matbuot kotiblari uchun o'quv-seminari o'tkazilmoqda.



Oromgohda matbuot kotiblari xato va kamchiliklar, yutuqlarini muhokama qilib, o'zaro tajriba almashish imkoniga ega bo'lmoqda. “Besh tashabbus olimpiadasi”ning birinchi mavsumini yoritishdagi tezkorlik, ochiqlik, OAVni jalb qilish va olingan rasm hamda videoroliklar sifati bo'yicha mashg'ulotlar, olimpiadaning ikkinchi mavsumini keng yoritishda nimalarga ahamiyat berish rasm hamda videoroliklar mukammal foydalanish borasidagi o'quv-seminarlar ishtirokchilarga mazur bo'lyapti. Ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarni sifatli va hammaqabul yuritishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risidagi seminar ham foydali bo'ldi.


Anvar TO'YCHIYEV,
Yoshlar ishlari agentligining
Sirdaryo viloyati
boshqarmasi matbuot kotibi:

– Tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan axborot asrida biz, matbuot kotiblaridan ikki baravar bilim, tezkorlik, tajriba talab etiladi. Atrofimizda yangiliklar ko'p. Biroq ularning qay biri rost, qay biri yolg'on? Eng muhimi, bu ma'lumotlar yoshlarimiz hayotiga qay darajada o'z ta'sirini ko'rsatmoqda? Shular haqida o'ylash, fikrlash, aql bilan yondashish, yoritayotgan har bir xabarimiz kelajak avlod uchun daxldor ekanligini yurakdan his etishimiz lozim. Tajriba orttirishda o'quv-seminarlarining ahamiyati juda katta. Soha mutaxasssilaridan olgan bilimlar keyingi faoliyatimizda dasturilamal bo'ladi.

Oromgoh qatnashchilarining kayfiyati a'lo. Ular o'z viloyatlariga yuksak bilim, yangi g'oyalar bilan qaytishadi.

“QUYOSH QOZONI”

YOXUD MAHALLA YOSHLARI YASAGAN QUYOSH ELEKTR QURILMASI



Farruxbek ABDOJALILOV,
Bo'ston tumanidagi "Guliston" mahallasi
yoshlar yetakchisi

larga bog'liq. Undan uy sharoitida, fermer xo'jaliklarida, cho'l mintaqalarida, turistik bazalarda, sayohatga chiqqanda foydalansa bo'ladi. Qurilmaning konstruksiyasini o'zgartirib, ochiq va yopiq basseynlar, hammom va saunalarda suv isitishda qo'llash ham mumkin.

Dunyoda quyosh energiyasidan keng foydalanilayotgan bir paytda bu qurilma juda asqotadi. Chunki quyosh energiyasining qator afzalliklari bor. Birinchidan, u ekologik toza va arzon. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, qurilmani ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish foydadan xoli bo'lmaydi.

Mahalladagi texnologiyalar yaratishga qiziqishi baland, tushunchasi bor yoshlar bilan uni yanada takomillashtirish ustida izlandik. Hozir loyiha tayyor. Ko'pchilik mahalla yoshlari shu

Iqbol PARDAYEVA tayyorladi.

Shuni ham aytishim kerakki, men uchun mahallamiz yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish juda muhim. Bu borada eng yaxshi vosita kitob deb bilaman. Yoshlarning kitobga qiziqishini inobatga olib, mahallamiz kutubxonasiga 100 dona badiiy adabiyot olib keldim. Mahalla yoshlari bu kitoblarni o'qimoqda.

"Besh tashabbus" olimpiadasiga barcha yoshlarni qamrab olishga e'tibor qaratyapman. Birgina "Zukko kitobxon" tanlovida 250 nafar yosh qatnashdi. Bu loyihalar orqali yoshlarning kitobxonlik, san'at va sportga qiziqishi yana ham ortdi.

"Bir nuroniyya o'n nafar yosh" loyihasi doirasiga birlashtirilgan ziyoli nuroniylarimiz bilan birgalikda ko'chama-ko'cha, xonadonma-xonadon yurib, mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda hayotda ko'plab muammolar qarshisida turgan yoshlarimizning 10 nafarini ro'yxatga olib ulardan 3 nafarini doimiy ish bilan ta'minladik.

Shu kunga qadar menga berilgan vakolatlardan foydalanib, ishsiz, chorasiz yoshlarni ish bilan band qilib, ularning muammolarini barcha taraf etib kelyapman.


“

**YOSHLARNING KITOBGA
QIZIQISHINI INOBATGA
OLIB, MAHALLAMIZ KUTUB-
XONASIGA 100 DONA
BADIY ADABIYOT OLIB
KELDIM.**

Mahallamizdagi har bir yosh bilan suhbatlashish, orzu-umidlari, rejalari bilan tanishish, qo'llab-quvvatlash faoliyatining asosiy qismidir. Suhbatlashsam, yoshlarning ko'pchiligida yaqinlari, mahalla-ko'y uchun nimadir yordam qilish, og'irini yengil qilish istagi borligini aytadi. Bu ularda vatanparvarlik, el-yurtga kamarbastalik tuyg'usi shakllanayotganini, faqat o'zi uchun emas, boshqalar uchun ham qayg'urayotganini bildiradi.

Yaqindagina yoshlar bilan suhbatimizda elektr, gaz muammolaridan gap chiqib, muqobil energiyadan foydalanishga o'tish zarurati xususida bahslashib qoldik. Men ularga talabalik yillarimda yaratgan ixtimomim haqida gapirib berdim. Ulardan biri "Quyosh qozoni" qurilmasidir.

Qurilmani yasashda ikkilamchi xomashyolardan – parabolik antenna asosi, ko'zgu qoldiqlari va eski quvurlardan foydalangandik. Biz yasagan "Quyosh qozoni"da yoz kunlari 30 litr suvni 20-30 daqiqada isitish, 35-40 daqiqada qaynatish, ovqat pishirish ham mumkin edi. Qurilmaning ishlash ko'rsatkichi vaqtiga, relef joyiga, quyosh nuri yo'nalishiga va boshqa sharoit-



loyiha atrofida birlashgan. Agar bu maqsadimiz amalga ohsa, yaqin kelajakda mahallamizda, kerak bo'lsa, tuman, viloyat miqyosida quyosh energiyasidan samarali foydalanish borasida bir qator ijobiy natijalarga erishamiz. Qurilmani tayyorlash uchun ketadigan mablag' ham katta emas, o'rtacha hisoblaganda 300-350 ming so'm ketadi. Uni homiylik asosida tayyorlashni yo'lga qo'ysak, mahalladagi ko'plab yoshlarimizni ish bilan ta'minlashga erishamiz. Yosh tadbirkorlarni ham qurilma bilan ta'minlasak, ish faoliyatiga katta hissa qo'shgan bo'lamiz.



PREZIDENT BILAN SUHBAT BIR UMR YODIMIZDA SAQLANIB QOLADI



Samarqand viloyatida "Zakovat" intellektual tanlovini targ'ib qilish va o'tkazish menga birlashtirilgan. Hozir viloyat "Zakovat" klubi tashabbusi bilan har bir mahallada "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazib kelinmoqda.

O'tgan yili Buxoroda o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yini finalida Prezidentimiz bilan ilk bor uchrashgandim. Lekin

o'shanda u kishi bilan suhbatlashishning imkoni bo'lmagandi. Bu yil nafaqat men, balki jamoamiz a'zolari ham davlatimiz rahbari bilan suhbatlashishga musharraf bo'ldi.

Prezidentimiz 30-iyun – Yoshlar kuni "Yangi O'zbekiston" bog'iga kelganida jamoamiz "Zakovat" turnirining respublika bosqichida birinchi o'rinni qo'lga kiritgani haqida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbarining "Siz kabi bilimdon, iqtidorli va iste'dodli yoshlar yurtimiz tayanchi, siz bilan doim faxrlanamiz, bilim olishlaring uchun hamma sharoitni yaratib beraman", degan gaplaridan barchamiz sevinib, to'qinlanib ketdik.

Shuningdek, mahallamizdagi 84-maktabda ingliz tilidan dars berishimni, "Zakovat" klubi a'zosi ekanimni va jamoamiz bilan mahallada o'quvchilar orasidan bilimdonlarni saralab, intellektual jamoalar shakllantirayotganimizni aytdim. Prezidentimiz gaplarimdan xursand bo'lib, ishlarimizga rivoj tiladilar va Samarqandda hokim bo'lib ishlagan yillarida ushbu maktabning toini ta'mirlatib berganini, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashganini esladilar. Davlatimiz rahbari bilan uchrashuvdagi samimiy suhbat bir umr yodimizda qoladigan bo'ldi.

BIZ

G'ALABA QOZONAMIZ



Jahongir SHIRINOV

Ayni kunlarda "Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2-mavsumiga start berildi.

– Bu haqda mahallamiz yoshlari yetakchisi Bekzod Olimovdan eshitgach, do'stlarim bilan "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqasida qatnashish istagini bildirdik, – deydi Uchtepa tumanidagi "Jurjoniy" mahallasida yashovchi Jahongir Shirinov. – Yetakchi yordamida ro'yxatdan o'tdik. Men street workout sport turi bo'yicha

ishtirok etishni maqsad qilganman. Yoshlar yetakchisi sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Biz uchun malakali mutaxassislarni ham jalb etishdi. Asosiy maqsadimiz "Besh tashabbus olimpiadasi"da g'oliblikni qo'lga kiritish va mahallamiz uchun zamonaviy mashg'ulot maydonchasini yutib olish. Tengdoshlarimni ham "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etishga chaqiraman.

Eslatib o'tamiz, "Besh tashabbus olimpiadasi" shu yilning sentabr-dekabr oylarida quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi:

- "Yosh kitobxon";
- "Quvnoqlar va zukkolar";
- "Yoshlar raqs festivali";
- "Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi" respublika tanlovlari;
- voleybol;
- yengil atletika;
- stritbol;
- shaxmat;

- shashka;
- stol tennis;
- street workout;
- kurash;
- kibersport bo'yicha musobaqalar;
- "Zakovat" intellektual o'yini o'tkaziladi.

Olimpiadada ishtirok etish uchun joriy yil 10-avgustdan 9-sentabrgacha @beshtashabbusbot telegram manzili orqali ro'yxatdan o'tish lozim!

CHIRCHIQLIK VOLONTYORLAR

Volontyorlik harakati

yoshlarning muammolarini hal etishga ko'maklashmoqda

Xabaringiz bor, volontyorlik harakati yoshlar orasida keng rivojlanmoqda va respublikamizning turli shahar-tumanlarida ko'plab volontyorlik jamoalari mavjud. Bizning jamoa ham "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga binoan ijtimoiy-huquqiy yo'nalish bo'yicha mustaqil faoliyat olib bormoqda.

Dastlab bizga ham oson bo'lmadi – homiy-larni topish, tanlagan yo'nalishimiz bo'yicha mutaxassislar bilan aloqa o'rnatish kerak edi. Bu vazifani a'lo darajada uddaladik. Birinchi bo'lib harbiylar va Milliy gvardiya bilan hamkorlik o'rnatdik. Ular bilan birga ijtimoiy himoyaga muhtoj va og'ir sharoitda qolgan yosh oilalarga yordam beryapmiz.

Ayrim mutasaddilar fuqarolarimiz dardini o'ylamaydi, ba'zida eshitishni ham xohlamaydi. Shunday paytda yoshlar yordam so'rab bizga murojaat qiladi. Kimdir "Yoshlar daftari"ga kiritilmagan, kimdir mahallaga borib yordam so'raganda rad javobini olgan, ayrim yoshlar turli sabablarga ko'ra pasport olmagan va hokazo.

Jamoamiz dastlab muammoni aniqlab, so'ng yechimini izlaydi. Masalan, iyul oyida



"Yoshlar daftari" bilan bog'liq muammolarga duch kelgan 9 nafar yosh murojaat qilgan. Shahar miqyosida hal bo'lmagani tufayli ushbu ro'yxatni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Yoshlar ishlari agentligining markaziy apparatiga taqdim qildik. Hozir bu masalalar yuzasidan ishchi guruh shakllantirilib, har bir yoshga manzilli yordam berilmoqda.

Yana bir misol, turli sabablar bilan pasport olmagan yoshlarimiz amaliy yordam so'rab murojaat qildi. Quvonarlisi, ularning muammolari ijobiy hal etildi. Albatta, o'z o'rnida jamoamizga ham yordam beradiganlar bor. Eng yaqin hamkorimiz Yoshlar ishlari agentligi va Chirchiq shahridagi Xalq qabulxonasi. Xalq qabulxonasi-ga asosan mahallalar bilan bog'liq muammolar bilan boramiz. Ularning 80 foizi ijobiy hal qilinmoqda.

Ayni paytda kuchli blogerlik jamoasini tashkil etish uchun ilk qadamlarni qo'ydik. Tez kunlarda Chirchiq shahrida yana bir bloger-volontyorlar jamoasi paydo bo'ladi.

Maksim GYULAXMEDOV.

Chirchiq shahri

YODGORLIKLARNI BUZG'UNCHI TIKLOVCHILARDAN ASRAYLIK

Muzeyga kirgan bir odam qadimiy ko'zani sindirib qo'yibdi.

Muzey xodimi uni urisha ketibdi:
– Axir siz 700 yillik ko'zani sindirib qo'ydingiz-ku!

– Ha, eski ekan-ku, baqirishingizdan men ko'zani yangi deb o'ylabman...

Ushbu latifani eshitgan insonning yuziga tabassum yugurishi aniq. Biroq tub zamirida yashiringan muammo kishini mulohaza qilishga undaydi, chuqur o'yg'a toldiradi.

Bugun yurtdoshlarimiz, hatto mansabdorlar orasida ham jamoat mulki bo'lgan tarixiy inshoot va qurilmalarga xuddi latifa qahramonidek nopisandlik bilan munosabatda bo'layotganlar yetarlicha. Hatto ko'payib bormoqda.



KIM JAVOBGAR?

Yodgorliklarni asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish faqat bir kishi yoki tashkilotning emas, butun millatning bo'ynidagi ham qarz, ham farz bo'lgan mas'uliyatli vazifadir.

Yurtimizda tarixiy yodgorliklarni muhofaza etish ishlariga o'tgan asrning 20-yillaridan jiddiy e'tibor qaratila boshlagan. 1920-yili Maarif xalq komissarligi qoshida muzeylar, san'at asarlari va qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilish Turkiston qo'mitasi – "Turkkomstaris" tuzilgan, keyinchalik bu ish bilan "Sredazkomstaris" shug'ullangan. Hozir Turizm va madaniy meros vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish inspeksiyasi bu ish bilan shug'ullanadi. Qolaversa, respublika hududi hamda chet mamlakatlarda

saqlanayotgan noyob qo'lyozmalar, madaniy, tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik va xalq og'zaki ijodi namunalari, san'at va badiiy asarlar, teatr, musiqa, qadimgi davlatchilik tarixiga oid hujjatlar, qadimiy cholg'u asboblari yig'ish va saqlash maqsadida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi faoliyat yuritmoqda.

Shunday bo'lsa-da, vazirlik-u qator tashkilotlar ko'zini sham'alab, tarixiy yodgorliklar joylashgan hududni buzdirib yuborayotgan "ishbilarmon" tadbirkorlar paydo bo'lmoqda. Ularning maqsadidan xabardor, qilayotgan ishlarini ko'rib ko'maslikka olayotgan befarq kimsalar bor ekan, ulardagi dunyoqarash o'zgarmas, milliy g'urur uyg'onmas ekan, moddiy boyliklarimizni yuzta tashkilot qo'riqlasa ham foydasiz.

Ziyoda RAHIMBOYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

“

DUNYOQARASH
O'ZGARMAS, MILLIY G'URUR
UYG'ONMAS EKAN, MODDIY
BOYLIKLARIMIZNI YUZTA
TASHKILOT QO'RIQLASA
HAM FOYDASIZ.

TIKLASHMI YO BUZG'UNCHILIK?

So'nggi bir necha yil ichida qator viloyatlarda tarixiy obyektlarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish holatlari ko'proq aniqlanmoqda. Bir necha kun avval Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi arxeologik yodgorlikni uy qurish uchun berib yuborgan mansabdorlarga qarshi jinoiy ish qo'zg'atilgani haqida xabarlar tarqaldi. Bosh prokuraturaning ma'lum qilishicha, qadimiy obyektga **80 milliard so'm miqdorida jiddiy shikast yetgan va uni tiklash deyarli imkonsiz.**

Bu haqda Oliy Majlis Senatining yigirma uchinchi yalpi majlisida ham alohida to'xtalib o'tilgan edi. Muhokama davomida Senat tomonidan Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahrida olib borilgan o'rganishlar mabaynida moddiy-madaniy meros obyektlariga katta miqdorda zarar yetkazish holatlari aniqlangan, davlat muhofazasiga olingan ayrim arxeologik obyektlar yo'q bo'lib ketgani ta'kidlandi. Bunga Buxorodagi XX asr boshida quril-

gan Sitorayi Mohi Xossa tarixiy majmuasini ham misol qilib keltirish mumkin. Majmuadagi restavratsiya (qayta tiklash va mustahkamlash) ishlari noto'g'ri olib borilgani oqibatida uning badiiy bezaklari, naqshlari, koshinlari buzilib, tarixiy va badiiy qiymatiga jami **28 milliard so'mlik zarar yetkazilgan.** Qisqasi, tarixiy majmuada bo'lib o'tgan ishlarni faqat obodonlashtirish nomi ostidagi buzg'unchilik, deb atash mumkin xolos!

Mavzuga aloqador yana bir shov-shuvli ishni eslatib o'tish kerak. Gap bundan bir necha yil avval Samarqand shahridagi Amir Temur ko'chasida joylashgan 14-uyning buzilishi haqida ketmoqda. Befarqlik shu darajadagi, butun bir imorat buzilib, o'rni tekislab yuborilgandan keyingina bu haqida tegishli tashkilotga xabar berilmoqda. Haqli savol tug'iladi, biz qachon bu darajaga kelib qoldik? O'z tarixiga nopisand munosabatda bo'layotganlarni kuzatib ulg'ayayotgan avloddan kelajakda nima kutish mumkin?!

To'g'ri, tarixiy va madaniy boyliklarni yeb bo'lmaydi. Ammo inson hayotida, kishilik jamiyatida shunday tushunchalar borki, har qanday moddiyatdan ustun turadi.

Unutmang, bu boyliklar bizga qanday yetib kelgan bo'lsa, shu holi-cha kelajak avlodga yetkazish yelkamizdagi eng katta vazifadir!

G'OLIBLAR MAGISTRATURAGA IMTIHONSIZ QABUL QILINADI



Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-avgustdagi "Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti tashkil qilinadi.

Jamiyatning asosiy vazifalaridan biri respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

2022-yildan har yili hududlar, tarmoq va sohalar kesimida ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkaziladi. Tanlovda 1-o'ringa 90 million so'm, 2-o'ringa 75 million so'm, 3-o'ringa 60 million so'm pul mukofoti ajratiladi. Bundan tashqari, g'oliblarning ixtiroklarini kelgusida startap loyihalar doirasida moliyalashtirishga ustuvorlik beriladi.

G'oliblar magistraturaga Yoshlariga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi granti hisobidan imtihonsiz qabul qilinadi.

Shahribonu RAHMATOVA

YOSHLAR QANCHA KITOB O'QIYDI?

O'qish sport bilan shug'ullanishga o'xshaydi. Ularning ikkida ham intizom, qat'iyat va iroda bilan muvaffaqiyat qozoniladi. Har kuni o'qish va sport zaliga borish uchun vaqtingiz bo'lmasligi mumkin. Ammo tanangiz yoki ongingiz baquvvat bo'lishi uchun ularni chiniqtirish kerak.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 35 foizi pandemiya sabab ko'proq kitob o'qishni boshladi. Biroq kuzatishlardan ma'lum bo'lyaptiki, yoshlar kattalarga nisbatan televizor tomosha qilishga, ijtimoiy tarmoqlarga ko'proq vaqt sarflamoqda. Ularga kitob o'qishdan ko'ra Tik-tokda har xil videolarni tomosha qilish qiziqroq. Negaki mutolaa o'ylashga, fikrlashga majbur qiladi, aksariyat yoshlarga esa "boshini og'ritish" yoqmaydi.

Yana bir masala shundaki, aholining aksariyati oliy ma'lumotli bo'lsa-da, ularni ziyoli deya olmaymiz. Chunki ko'pchilikning asosiy maqsadi qanday bo'lmasin boy bo'lish. Internetda ham "maktabda ikkichi bo'lganman, hozir o'lochilar qo'limga ishlaydi", deb keriladiganlar ko'payib ketgan. Ularga ergashadigan yoshlar ham yetarlicha. Eng mashhur bukbloggerlarni tanimaydiganlar ko'p, lekin tiktoklarni hamma taniydi. Ularga "iPhone"ning oxirgi modeli beriladi, lekin bukbloggerlarga zambarakning o'qi...

BESTSELLER VA BIOGRAFIK ASARLAR

Kitobxon qizimiz **Madina Hoshimovaning fikricha**, kitobxonlik madaniyati shakllanishida oilaviy muhit va til bilish muhim ahamiyatga ega. Hozir "Riks" o'quv markazida umumiy ingliz tili, IELTS kurslaridan dars berayotgan Madina shunday deydi:

- Kitob bilan bog'liq eng yorqin xotiram bu vaxtning kitob javoni. Bu vaxt juda ko'p kitob o'qirdi, haligacha shunday. Men ularga qiziqib, o'qishni bilmasam ham, kitoblarni varaqlab, rasm topib, xayol surib o'tiraverardim. Shundan kelib chiqsam, oila davrasida mutolaa qilish an'analarni ommalashtirish kerak. Ingliz yoki rus

tilini biladiganlar xohlagan kitobini topib o'qishi mumkin. Menga esa "non-fiction" janri yoqadi. Agar o'zimga kerakli kitobni o'zbek tilida o'qiydigan bo'lsam, tarjima qilinishini ancha vaqt kutib o'tirishimga to'g'ri keladi. Shu bois tarjima-si boshlangan asarlar, taqdimoti kutilayotgan kitoblar haqida ma'lumot berib turish, o'zbek kitobxonlariga tanlash imkoniyatini yaratish kerak. Tarjimada ham "self-help" kitoblarni emas, jiddiroq bestseller va biografik asarlarni tanlash lozim deb o'ylayman. Kitob muqovasi ustida ham mehr bilan ishlashsa, yaxshi bo'lardi.

16% KITOBXONLIK DAN BEGONA

Yoshlarning kitob o'qish tezligi, vaqti va kitoblar turini aniqlash maqsadida Telegram ijtimoiy tarmog'i orqali kichik so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, ishtirokchilarning deyarli yarmi bir oyda to'rttadan ko'p, qolgan yarmi esa undan kam kitob o'qiydi. 17 foiz ishtirokchining

o'qish me'yori kuniga 50 varaqdan ko'p, 11 foizniki esa undan kamroq. 60 foizga yaqin ishtirokchi vaqti-vaqti bilan, 24 foizi har kuni mutolaa qilsa, qolgan 16 foiziga kitobxonlik begona. Umumiy ishtirokchilarning 20 foizi qog'oz kitoblardan ko'ra elektron va audio kitoblarni afzal ko'rar ekan.



KITOB DO'KONLAR HUVULLAB YOTGANI YO'Q

Yana bir kitobxonimiz **Temur Tangriberganov** o'zbek yoshlari orasida kitob o'qish yuqori darajada deb hisoblaydi. U bugungi kunda "Xorazm" nashriyoti rahbari va kitobxonlikni rivojlantirish uchun turli loyiha va tanlovlarni tashkil etib turadi.

- Kitobxonlarni bir nechta guruhga ajrataman. Bular: oddiy havaskor kitobxonlar, tajribali kitobxon va filologlar, olimlar va ilm kishilari. Havaskor kitobxonlar zerikkanida, bo'sh vaqt topganida yoki kimdir tavsiya qilganida o'qiydigan kishilardir. Ularning orasida tez-tez o'qib tugatadiganlari ham, bir kitobni haftalab yoki oylab olib yuradiganlari ham uchraydi. Professional kitobxonlar - ko'p yillardan beri mutolaa qilib, ko'zi o'tkirlashgan, turli mintaqalarning adabiyotini yaxshi biladigan, janrlarni farqlaydigan, hatto kitoblarning sifati va saviyasini ajrata oladiganlar. Professionalarning mutolaa doimo maqsadli bo'ladi, ular yiliga 50-100 tacha kitob o'qiydi. Uchinchi toifa esa kitoblardan ilm izlaydi.

O'zbekistonda kitobxonlik darajasi o'rtachadan yuqori deb o'ylayman. So'nggi 5 yilda nashriyotlar va kitob do'konlarining haddan ziyod ko'paygani kitobxonlik shiddat bilan rivojlanayotganligiga ishora beradi. Oldingidek do'konlar huvullab yotgani yo'q, aksincha yangi tarjimalar chiqishi bilan sotilib ketmoqda, internet tarmoqlaridagi do'konlar butun respublika bo'ylab kitob yetkazishda davom etmoqda. Eng muhimi, internetning o'zi ham kitobxonlik uchun yaxshigina xizmat qilmoqda. Endilikda biz o'qiydigan kitoblarning audio va elektron ko'rinishlari ham bor. Bu esa o'qishga erinadigan ayrim kitobxonlar uchun ayni muddaodir.

BILL GEYTS REKORDI BILAN TENGLASHISH UCHUN...

Boylarning 88 foizi har kuni o'ttiz daqiqa yoki undan ko'proq vaqtini kitob o'qishga ajratarkan. Masalan, Bill Geyts yiliga 50 ta kitob o'qiydi. Siz Geytsning rekordi bilan tenglasha olmasligingiz mumkin, ammo bu yaxshi motivatsiya.

Jadval tuzish va unga rioya qilish orqali kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirishingiz mumkin. Bunda turli dasturlar yordam beradi. Masalan, play market ilovasiga kirib "kitob o'qish uchun programmalar" deb yozsangiz, sizga o'zbek va boshqa tillardagi ilovalarni topib beradi. So'ng qulayini o'rnatib, haftaning aniq kunlarini, hatto bir kun uchun turli vaqtlarni tanlab, o'zingizga moslashtirilgan jadval yaratishingiz mumkin.

Garchi ko'pchiligimiz o'qishga oddiy mashg'ulot sifatida qarasa-da, u bizning sog'lig'imizni (o'qish aql zaiflashuvini 32 foizga kamaytiradi), uyquni yaxshilaydi va bizni yanada dono qiladi. Eng muhimi, hayotingizni o'zgartiradi!

Uchqun

TUG'ILISH

Yarim tun
Va ochiq oynalar.
Avtolar shovqini
Toshkanda.

Shamollar bejoroq yugurar
Suyunchi olgani shoshganday.

Yotoqda mizg'yidi horg'inlik,
Sho'rlikning bir ko'zi o'yilgan.
Stolda dastalab yakunsiz
Xatlarga so'ng nuqta qo'yilgan.

Lab bo'yoq tekkam bir finjonda,
Qahvarang ko'zlaring...
sen yo'qsan.
Uch kunki, qo'limga ezilib,
Varaqlanib borar Mopassan.

Ong ostida evrilish boshlanar,
Tuyg'ular g'olibdir nihoyat.
Va qalam raqs etar...
Oq qog'oz
Qora ter to'kishi kifoya!

Shivirlab tug'ilar nelardir
Ko'nglimning tubidan soyalab.
Ingranib chiqadi so'z bunda
Bugun ham ismingni qoralab...

Yarim tun
Va ochiq oynalar...

Shahrizoda BOTIROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

“BIZNING YOSH IJODKORLAR”

Loyiha muallifi:
Shahribonu RAHMATOVA

“Bizning yosh ijodkorlar” loyihasining bu galgi qahramoni milliy san'atimiz an'analari yasagan buyumlarida aks ettirayotgan zargar – **Yusupova Nazokat Dilshodbek qizi**.

U bolaligidan rasm chizishga, taqinchoqlar yasashga qiziqadi. Ayni paytda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining dastgohli va kitob grafikasi yo'nalishida tahsil olmoqda.

Nazokat kelajakda milliy san'atimiz zargarlik taqinchoqlarimizni dunyoga targ'ib qilishni va yosh qizlarimizga ham bu hunar sirlarini o'rgatishni reja qilgan. Shu yo'lda u ko'plab loyihalar yaratdi va tanlovlarda g'olib bo'ldi. “Yangi O'zbekiston mening nigohimda” tanlovida ishtirok etib, **“Eng yaxshi amaliy san'at asari”** nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.



TASHXIS

BILASIZMI



Tashxis (arabcha – shaxslantirish) – jonlantirish badiiy san'atining bir turi; turli nar-salar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni ko'chirish san'ati. Tashxis og'zaki nutqda ham, badiiy asarlarda ham keng qo'llanadi. Masalan:

*Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.*

(Atoyi)

Ushbu misralarda ijodkor yor jamoli haqida chamandagi gul-u chechaklarga so'z ochdim, shunda sening go'zalligining oldida gul uyaldi va qizardi, demoqda. Gulning insonga xos xususiyat bilan ta'riflanishi ma'noni yanada kuchaytirgan.

Yoki zamonaviy adabiyotda Muhammad Yusufning:

*Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan*

misralarida “yulduzlarning qiqirlab kulishi” tashxis san'atiga misoldir.

Rashid XO'JAMOV tayyorladi.

Nazokat Yusupova



– Zargarlik taqinchoqlarini yasash jarayonida ko'plab g'oyalar, bezaklar ko'z o'ngimga keladi. O'tmishda ham zargarlik taqinchoqlari malikalarning ko'rki bo'lib xizmat qilgan. Tarixiy zargarlik buyumlaridan ilhomlanib, “To'maris” nomli taqinchoq yasadim. Taqinchoq o'sha davmning nafasini berib turgani uchun yarmarkalarda chet elliklar asosan “To'maris”ni xarid qilishadi.

Yaratgan taqinchoqlarimni shoirlarimiz, qahramon ayollar nomi bilan atashni yoqtiraman, shunda o'sha davr tarixiga nazar solgandek, ularning siymolari ko'z o'ngimda gavdalangandek tuyuladi. Tengdoshlarim orasida o'tmishni jonlantiradiganlari deyarli yo'q. Ular ko'pincha zamonaviy liboslarga mos taqinchoqlar yasashga harakat qiladi. Men esa tarixiy zargarlik buyumlariga uyg'un uslublarni tanlayman, chunki bunday zeb-u ziynatlar ayollarni yanada ko'rkamroq ko'rsatadi, nazarimda.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 16-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va saqlanadi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuatchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-855, Adadi – 10527. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6